

**BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.04/30.04.2022.Tib.93.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

SHERBEKOV ULUGBEK AXRAROVICH

**QORIN CHURRASI VA QO‘SHILIB KELGAN QORIN BO‘SHLIG‘I
A‘ZOLARI PATOLOGIYASI XIRURGIYASINING TAKTIK VA TEXNIK
JIHATLARI**

14.00.27 – Xirurgiya

**TIBBIYOT FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской диссертации

Contents of dissertation abstract of doctoral dissertation

Sherbekov Ulugbek Axrarovich

Qorin churrasi va qo‘shilib kelgan qorin bo‘shlig‘I a‘zolari patologiyasi
xirurgiyasining taktik va texnik jihatlari..... 3

Шербеков Улугбек Ахрарович

Тактические и технические аспекты хирургии грыж живота и сочетанной
патологии органов брюшной полости 25

Sherbekov Ulugbek Akhrarovich

Tactical and technical aspects of abdominal hernia surgery and combined
pathology of the abdominal organs..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 53

**BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.04/30.04.2022.Tib.93.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

SHERBEKOV ULUGBEK AXRAROVICH

**QORIN CHURRASI VA QO‘SHILIB KELGAN QORIN BO‘SHLIG‘I
A‘ZOLARI PATOLOGIYASI XIRURGIYASINING TAKTIK VA TEXNIK
JIHATLARI**

14.00.27 – Xirurgiya

**TIBBIYOT FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.DSc/Tib579 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat tibbiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.bsmi.uz) va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy konsultant

Kurbaniyazov Zafarjon
tibbiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar

Safoev Baqodir Barnoevich
tibbiyot fanlari doktori, professor

Eshonxodjaev Otabek Djuraevich
tibbiyot fanlari doktori, professor

Nazarov Shoxin Kuvvatovich
tibbiyot fanlari doktori, professor
(Tojikiston respublikasi)

Yetakchi tashkilot

A.V. Vishnevskiy nomidagi Milliy jarrohlik ilmiy tadqiqot markazi (Rossiya Federatsiyasi)

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.04.2022.Tib.93.01 raqamli Ilmiy kengashinig 2023 yil «26» YANVAR soat 12³⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shaxri, A.Navoiy shoh ko'chasi, 1-uy. Tel.: (+99865) 223-17-53; faks: (+99865) 223-00-50; e-mail: buhmi@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat tibbiyot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin 044-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200100, Buxoro shaxri, A.Navoiy shoh ko'chasi 1-uy. Tel.: (+99865) 223-17-53; faks: (+99865) 223-00-50.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «12» YANVAR da tarqatildi.

(2023 yil «12» YANVAR dagi 04 raqamli reestr bayonnomasi).



A.Sh. Inoyatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
tibbiyot fanlari doktori, professor

N.N. Kazakova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

B.Z. Xamdamov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, tibbiyot fanlari doktori

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlarga ko‘ra «...qorin old devorining churrasi bir vaqtning o‘zida qorin bo‘shlig‘i a‘zolarining kasalliklari bilan birgalikda keng tarqalgan jarrohlik kasalliklaridan biri bo‘lib, aholining 3-7% ida uchraydi va asosan mehnatga layoqatli yoshdagi odamlarni tashkil qiladi»¹. Adabiyot ma‘lumotlariga ko‘ra, gerniotomiya qilingan bemorlarning 15-20% i operatsiyadan keyin boshqa jarrohlik kasalliklari sababli takroriy jarrohlik aralashuvlarga duchor bo‘ladi. Bu bir vaqtda bajariladigan jarrohlik amaliyotlari muammosining dolzarbligini belgilaydi. Bemorda qorin bo‘shlig‘i a‘zolarining birga keladigan kasalligi bo‘lsa, ventral churrada faqat gerniotomiya qilishning mantiqsizligiga e‘tibor qaratish lozim. Qorin bo‘shlig‘ining boshqa patologiyasi bo‘lgan bemorlarda faqat gerniotomiya qilingan taqdirda, takroriy jarrohlik amaliyoti ko‘pincha gernioplastika natijalarini bekor qiladi.

Dunyo miqyosida qorin devorida va qorin bo‘shlig‘i a‘zolarida bir vaqtning o‘zida bajariladigan jarrohlik amaliyotlari ko‘plab bajarilgan bo‘lib, jarrohlik aralashuvining murakkabligi e‘tirof etilgan, tadqiqotlar natijasida davolanish muddati kamayishi, churra tuzalgandan keyin yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan asoratlarning rivojlanish xavfi kamayishiga erishilgan hamda qayta jarrohlik amaliyoti sababli takroriy og‘riqsizlantirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha hissiy zo‘riqish xavfi kamaytirilgan. Churralari bo‘lgan bemorlarda xoledoxolitiaz ko‘p uchrashi, ayollar orasida esa kichik chanoq bo‘shlig‘i patologiyalari, qorin bo‘shlig‘ida chandiqli kasalliklar, surunkali va o‘tkir osti ichak tutilishi, abdominoptoz aniqlanishi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan. Mazkur muammolar oshqozon-ichak traktining turli soxalarida joylashgan chandiqli kasallik, chandiqli ichak tutilishi va fistulalar mavjudligi bilan bog‘liqligi isbotlangan. Bularning barchasi churrani bartaraf etish etapida, qorin bo‘shlig‘i etapida va qorin bo‘shlig‘ini yopish etapida jarrohlik jarayonini batafsil o‘rganishni talab qiladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda aholini ijtimoiy muhofaza qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, xususan, morbid semizligi bo‘lgan bemorlarda ventral churralarni jarrohlik yo‘li bilan davolashni yaxshilashda ijobiy natijalarga erishilmoqda. Shu bilan birga, ushbu bemorlarga ko‘rsatiladigan yordamni yaxshilash uchun perioperativ asoratlarning oldini olish va kasallikning qaytalanishining uzoq muddatli oldini olishni hisobga olgan holda jarrohlik aralashuv samaradorligini baholash uchun dalillarga asoslangan natijalar talab qilinadi. Bu borada 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining yettita ustuvor yo‘nalishiga muvofiq aholiga tibbiy xizmat kuratish darajasini yangi bosqichga ko‘tarishda «...birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatda aholiga malakali xizmat ko‘rsatish sifatini

¹World Health Organization. Hernias: fact sheet no. 199. World Health Organization website. 2017. www.who.int/iris/handle/10589/1111189.

yaxshilash...»² kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish, diagnostika va jarrohlik taktikasini maqbullashtirish orqali semizligi bo'lgan bemorlarda ventral churrallarni jarrohlik yo'li bilan davolash natijalarini yaxshilash, jarrohlik davolash usullarini takomillashtirish ustuvor yo'nalishlardan biridir.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi PF-6110-son «Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi va 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida» gi Farmonlari, 2020 yil 10 noyabrdagi PQ-4887-son «Aholining sog'lom ovqatlanishini taminlash bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida» va 2020 yil 12 noyabrdagi PQ-4891-son «Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqotlari respublika fan va texnika taraqqiyotining VI «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo'nalishiga muvofiq olib borilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.

Qorin churrasi bo'lgan bemorlarni jarrohlik davolash sohasidagi ilmiy va amaliy tadqiqotlar dunyoning ko'plab yetakchi tadqiqot markazlari, loyihalar, OTM lari tomonidan olib borilgan, jumladan Academic Medical Center University of Amsterdam, Maastricht University Medical Center (Niderlandiya), State University of New York (AQSh), West Wales General Hospital (Buyuk Britaniya), The University of Auckland (Yangi Zelandiya), Medanta Hospital (Hindiston), Global Water Pathogen Project (Shveytsariya), Yevropa Gerniologlar jamiyati (Polsha), DBM «I.I.Djanelidze nomidagi Sankt-Peterburg tez tibbiy yordam ilmiy-tadqiqot instituti» (RF), A.V. Vishnevskiy nomidagi Milliy tibbiyot jarrohlik ilmiy-tadqiqot markazi» (RF), Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi (O'zbekiston), V.Voxidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy jarrohlik tibbiyot markazi (O'zbekiston)³.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari yetakchi ilmiy markazlari va oliy o'quv yillarida bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlar natijalari tahlili ushbu muammoning yuqori darajada dolzarbligi va iqtisodiy ahamiyatligini ko'rsatgan. Kasallikning yuqori darajada tarqalishi, ayniqsa, eng mehnatga layoqatli yoshdagi odamlar orasida, jarrohlikdan keyingi asoratlarning yuqori chastotasi, natijada bemorlarning

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni

³Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: www.pku.edu.cn, www.qdu.edu.cn, www.cgu.edu.tw, www.usj.edu.lb, www.umed.wroc.pl, www.ku.dk, www.snu.ac.kr, www.yonsei.ac.kr, www.ngt.ndu.ac.jp, www.unife.it, www.univaq.it, www.unibs.it, www.udea.edu.co, www.otago.ac.nz, www.iau.ac.ir, www.manchester.ac.uk, www.sydney.edu.au, www.cu.edu.eg; www.ufrj.br; www.uva.nl; www.portal.estacio.br; www.uwa.edu.au; www.unesp.br; www.khu.ac.kr. www.tmu.edu.tw; www.tsdi.uz

hayot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, qorinning tashqi churrasi muammosining dolzarbligi va ahamiyati ko'rsatilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Keyingi yillarda e'lon qilingan Nazirov F.G. (2018) ma'lumotlariga ko'ra, jarrohlik bemorlarning 20-30% ida kombinatsiyalangan jarrohlik patologiyalari mavjud. Ular orasida faqat 6-8% gacha holatlarda bir vaqtning o'zida bartaraf etish, ya'ni simultan jarrohlik amaliyoti o'tkazilgan. Jarrohlarning bir vaqtning o'zida bajarladigan operatsiyalarga bo'lgan cheklangan munosabati ularga ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalar bo'yicha yagona kelishuvning yo'qligi va yetarli darajada o'rganilmagan natijalar bilan izohlanadi. Ushbu muammoga bag'ishlangan bir nechta ilmiy maqolalarda bir vaqtning o'zida bajariladigan operatsiya davomiyligi, operatsiyadan keyingi davrning xususiyatlari va jarrohlik aralashuvining og'irlik darajasini tavsiflovchi boshqa bir qator omillar kabi muhim ko'rsatkichlarga kam e'tibor berilgan (Belokonev V.I. va hammual., 2018; Doble J.A. et al., 2019).

Bir vaqtning o'zida bajariladigan operatsiyalarning afzalligi shundan iboratki, ikki yoki undan ortiq jarrohlik kasalliklarini bir vaqtning o'zida bartaraf etilishidir, bunday bemorlarni jarrohlik davolashni keyinroqqa qoldirish bilan bog'liq takroriy anesteziya va uning asoratlari xavfini bartaraf etgan, takroriy tekshiruvlardan o'tish va operatsiyadan oldingi tayyorgarlik zarurati yo'q ekanligini ko'rsatgan. Ahonen-Siirtola M. va hammual. (2017) ma'lumotlariga ko'ra, ko'p sonli klinik kuzatuvlarga qaramay, kombinatsiyalangan jarrohlik aralashuvlar o'rtacha 3% jarrohlik bemorlarida amalga oshirilgan, ular chastotasi 20-30% ni tashkil qilgan.

Karimov Sh.I. ning (2016) ta'rifiga ko'ra, simultan jarrohlik amaliyoti bu jarrohlik davolash ko'rsatma bo'lgan kasalliklar uchun ikki yoki undan ortiq mustaqil jarrohlik amaliyotining bir vaqtning o'zida bajarilishidir. Bir vaqtning o'zida bajariladigan jarrohlik amaliyotini rad etishning asosiy sabablaridan biri jarrohlik araluvidagi shikastlanishdir. Yerl D. ning (2021) fikriga ko'ra, bir vaqtning o'zida bajariladigan jarrohlik aralashuvi jarrohlik amaliyotidan keyingi davrni og'irlashtiradi va turli xil asoratlar hamda o'limning darajasi yuqoriligi bilan birga kelgan. Bir vaqtning o'zida bajariladigan jarrohlik amaliyoti paytida jarrohlik aralashuvi davomiyligining uzayishi, qo'shimcha jarohat, ayniqsa og'ir somatik holatga ega bo'lgan odamlar, ularning asoratlari mavjudligi sababli jarrohlik aralashuvi xavfi ortgan (Hakimov M.Sh. va hammual., 2020; Gillion J. F. et al., 2018).

Har qanday jarrohlik aralashuvga javoban organizmda tizimli patofiziologik o'zgarishlar yuzaga keladi, ularning og'irligi bemorning dastlabki holati va jarrohlik aralashuvi jarayonida kuzatiladigan stress oqibatidagi shikastlanish darajasi bilan belgilangan. Qo'shimcha bosqich talab etiladigan bir vaqtda bajariladigan jarrohlik amaliyoti jarayonida ba'zi hollarda patologik o'zgarigan qorin bo'shlig'i a'zolariga qo'shimcha kirish imkoni bo'ladi, natijada organizmning «agressiv javob reaksiyasi» chegaralangan operatsiyalarga qaraganda yaqqolroq namoyon bo'ladi va bu ko'plab jarrohlarni qorin bo'shlig'i a'zolarining kombinatsiyalangan jarrohlik kasalliklari bilan bir vaqtda bajariladigan jarrohlik aralashuvlaridan voz kechishini talab qilgan (Nosirov M.Ya. va hammual., 2015).

Ammo shuni esda tutish kerakki, kombinatsiyalangan kasalliklarni jarrohlik davolashni asossiz ravishda ajratish ko'p hollarda qo'shimcha patologik o'zgarishlarni jarrohlik yo'li bilan tuzatishning maqbul vaqtini o'tkazib yuboradi, shuningdek operatsiyadan keyingi erta davrda davolanmagan kasallikning kuchayishiga sabab bo'ladi. Shunday qilib, Gerbali O.Yu. (2019) ma'lumotlarga ko'ra, o't yo'llarida toshlar bo'lgan va qorin bo'shlig'ining boshqa a'zolarida operatsiya qilingan bemorlarning 3,8% operatsiyadan keyingi erta davrda o'tkir xolesistit rivojlangan.

Ventral churrasi bo'lgan bemorlarda qorin bo'shlig'ining birgalikdagi jarrohlik kasalliklarining chastotasi 11,8 dan 36,3% gacha bo'lgan. Churra bilan og'rikan bemorlarning 59,3% ida faqat bitta kasallik bo'lgan, ko'p hollarda ular ikkita (13,3-25,5%), uchta (13,5-51,6%), to'rtta (1,7-35,1%) bo'lgan va boshqa kasalliklar bilan qo'shib kelgan (Tesdaev O.R. va hammual., 2021). Bemorlarda churra qanchalik katta bo'lsa, u bilan birga keladigan kasalliklar ham shunchalik ko'p ekanligi aniqlangan.

Biroq, an'anaviy aralashuvlar ham va laparoskopik aralashuvlar ham o'ziga xos imkoniyatlarga ega, shuning uchun ular differensial yondashuvni va ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalarni aniqlashni talab qiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat tibbiyot universitetining 5436–012000262 raqamli «Jaroxatlar, xirurgik kasalliklar va o'smalarning profilaktikasi, diagnostikasi va davolashning zamonaviy texnologiyalarini yaratish va joriy etish» (2019-2023 yy.) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi: Jarrohlik aralashuvlarining taktik va texnik jihatlarini optimallashtirish orqali qorin devori churrasi va qo'shma qorin patologiyasi bilan og'rikan bemorlarni jarrohlik davolash natijalarini yaxshilashdan iborat bo'lgan.

Tadqiqot vazifalari:

qorin bo'shlig'i churrasi bo'lgan bemorlarda bir vaqtning o'zida bartaraf etish talab qilinadigan qorin bo'shlig'i jarrohlik patologiyalarining uchrash darajasini aniqlash;

qorin bo'shlig'i churrasi bo'lgan bemorlarda patologiyaning joylashuviga qarab qorin old devori va qorin bo'shlig'ida laparoskopik usullardan ustuvor foydalanish bilan bir vaqtning o'zida bajariladigan operatsiyalarni taktik va texnik jihatlarini optimallashtirish;

gernioplastika amaliyotini bajarish jarayonida endovideojarrohlik texnologiyalaridan foydalanishning texnik imkoniyatlarini aniqlash;

kompyuter tomografiyasi gernoabdominometriyasi bo'yicha qorin old devorining plastik jarrohligining tortilish va tortilishsiz usullarini tanlash mezonlarini aniqlash;

gernioplastikaning tortilishsiz usullarini bajarishning texnik jihatlarini takomillashtirish;

qorin bo'shlig'i organlari va qorin old devorida bir vaqtning o'zida bajariladigan operatsiyalar paytida jarrohlik stressining endokrin parametrlarini o'rganish;

endovideojarrohlik texnologiyalari va tortilishsiz alloplastika usullaridan ustuvor foydalanish bilan bir vaqtda kombinatsiyalangan gernioalloplastika va bir vaqtning o'zida qorin bo'shlig'i patologiyasini jarrohlik yo'li bilan bartaraf etishning klinik samaradorligini asoslash.

Tadqiqot ob'ekti sifatida qorin bo'shlig'i churrasi va bir vaqtda qorin bo'shlig'i a'zolarining patologiyasi bilan og'rikan 331 nafar bemor bo'lgan.

Tadqiqotning predmeti endovideojarrohlik texnologiyalari va tortilishsiz plastik usullardan ustuvor foydalanish bilan qorin bo'shlig'i a'zolarining bir vaqtning o'zida patologiyasi va qorin bo'shlig'i churrasi bilan og'rikan bemorlarni kompleks tekshirish va jarrohlik davolash natijalari tahlil qilindi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot maqsadiga erishish va qo'yilgan vazifalarni hal qilish uchun quyidagi tadqiqot usullari qo'llanilgan: umumiy klinik, biokimyoviy, instrumental va statistik usullar.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jarrohlik amaliyotining alohida bosqichlarida laparoskopik texnologiyalardan foydalanish o'zini oqladi, ya'ni bir vaqtning o'zida qorin devori churrasi va qorin bo'shlig'i a'zolarining qo'shma patologiyasini sezilarli bartaraf etib, miniinvaziv usulda tuzatishga imkon bergan;

W1 va W2 churralarida alloplastikani bajarilish jarayonida endovideojarrohlik texnologiyasining samaradorligi isbotlangan;

KT gernioabdominometriyasining yuqori informativligi isbotlangan, bu operatsiyadan oldin qorin old devori topografiyasidagi nuqsonlarni aniqlash, churraning qorin bo'shlig'i hajmiga nisbatan hajmini aniqlash va gernioalloplastikaning optimal usulini tanlash imkonini bergan;

W3 va W4 ventral churralari uchun tortilishsiz gernioplastika usullarini bajarishning texnik va taktik jihatlari takomillashtirilgan;

stress gormonlarining dinamikasini o'rganish shuni ko'rsatdiki, simultan operatsiyaning amalga oshirilishi jarrohlik depressiyasi darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi va shu bilan qorin old devori va qorin bo'shlig'i a'zolarining kombinatsiyalangan patologiyasini bir vaqtning o'zida bartaraf etish maqsadga muvofiqligini oqlagan;

endovideojarrohlik texnologiyalari va tortilishsiz alloplastika usullaridan ustuvor foydalanish bilan qorin bo'shlig'i churrasi va qo'shimcha abdominal patologiyani bir vaqtning o'zida jarrohlik yo'li bilan bartaraf etishning taktik va texnik jihatlari optimallashtirish davolash natijalarini sezilarli darajada yaxshilangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qorin bo'shlig'i va qorin old devorining kombinatsiyalangan jarrohlik patologiyasida bir vaqtning o'zida jarrohlik amaliyotini bajarish bir martalik anesteziya va jarrohlik aralashuvi doirasida bemorni davolashga imkon bergan;

operatsiyaning ikkala yoki alohida bosqichlarida qo'llaniladigan laparoskopik texnologiyalar jarrohlik aralashuvining shikastlanishini sezilarli darajada kamaytirgan;

taklif qilingan va o'zgartirilgan Endo Close ignasi tomonidan qo'llaniladigan takomillashtirilgan texnikaga muvofiq kompozit to'rtli protezlar va ekstrakorporal

tikuvlardan foydalanish laparoskopik churra alloplastika texnikasini sezilarli darajada osonlashtirgan;

operatsiyaning ikkala yoki alohida bosqichlarida qo'llaniladigan laparoskopik texnologiyalar jarrohlik aralashuvining shikastlanishini sezilarli darajada kamaytirgan;

KT gernoabdominometriyasi plastik jarrohlikning "tortiladigan" va «tortilmaydigan» usullarini tanlash mezonlarini aniqlashga imkon beradi va uning ma'lumotlariga ko'ra, qorin bo'shlig'ining 14% gacha bo'lgan churra protruziyasi bilan «onlay» endoprotezni churra nuqsonini tikish bilan implantatsiya qilish mumkin, 14,1% dan ortiq holatda – tortilmaydigan plastika qilish ko'rsatilgan;

«onlay + sublay» usulidan foydalangan holda endoprotez implantatsiyasi bilan tortilmaydigan churra alloplastikasi kompartment sindromining oldini olish va churraning takrorlanishini bartaraf etish imkonini bergan;

churraning o'lchamiga va qorin bo'shlig'idagi qo'shma patologiyaning lokalizatsiyasiga muvofiq churra alloplastikasi va bir vaqtning o'zida kombinir patologiyani jarrohlik yo'li bilan bartaraf etish usulini tanlash algoritmi tavsiya qilingan;

stress gormonlari dinamikasini o'rganish tortilish gernioplastikasini bajarish jarayonida jarrohlik tajovuzkorligining kuchayishini va uzoq muddatli pnevmoperitoneum kuzatilishini ko'rsatdi, bu esa operatsiya xavfi yuqori bo'lgan bemorlarda ushbu omillardan qochishni talab qilgan;

endovideojarrohlik texnologiyalari va tortilishsiz alloplastika usullaridan ustuvor foydalanish bilan qorin bo'shlig'i churralari va qorin bo'shlig'ining qo'shma patologiyasini jarrohlik yo'li bilan bartaraf etish tavsiya etilgan jarrohlikning taktik va texnik jihatlari operatsiyadan keyingi asoratlarni 8,6% dan 5,3% gacha kamaytirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy, keng qo'llaniladigan klinik, laboratoriya va instrumental tadqiqot usullaridan foydalanish bilan tasdiqlangan. Olingan barcha natijalar va xulosalar dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillariga asoslangan. Statistik ishlov berish olingan natijalarning ishonchliligini tasdiqlagan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qorin bo'shlig'i va ventral churralarning kombinatsiyalangan patologiyasi uchun jarrohlik aralashuvini bir vaqtning o'zida bajarish zarurati isbotlanganligi bilan belgilanganligi, qorin old devori churrasida qorin bo'shlig'i a'zolarining o'zaro patologiyalarini bartaraf etishda endovideoxirurgik jarrohlik amaliyotining afzalligi asoslanganligi, W1, W2 churralari uchun laparoskopik gernioplastikaning samaradorligi isbotlangan va ularning alohida bosqichlari takomillashtirilib, bajarish texnikasini sezilarli darajada soddalashtirilganligi, gernoalloplastika usulini tanlashda KT gernoabdominometriyasining ahamiyati va ma'lumot beruvchi qiymati aniqlanganligi, kompartment sindromining oldini olishda tortilishsiz alloplastika usullarining samaradorligi isbotlanganligi, simultan jarrohlik amaliyotini bajarish jarrohlik tajovuzkorlik darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmasligi aniqlanganligi, qorin bo'shlig'i churralari va birga keladigan qorin bo'shlig'i patologiyasini bir vaqtda bartaraf etish endovideojarrohlik

texnologiyalari va tortilishsiz plastik usullardan ustuvor foydalanishning klinik samaradorligi isbotlanganligi bilan asoslangan.

Ishning amaliy ahamiyati jarrohlik davolashni talab qiladigan qorin bo'shlig'ining kombinatsiyalangan patologiyasining eng keng tarqalgan shakllari aniqlanganligi, qorin bo'shlig'i kombinir patologiyasi churra defektidan uzoq masofada joylashgan bo'lsa, laparoskopik texnikadan foydalangan holda jarrohlikning simultan bosqichini afzalroq ekanligi isbotlanganligi, kompozit to'rtli protezlardan foydalanish implantni qorin oldingi «cho'ntak» ka fiksatsiyalash zaruratini yo'q qiladi, bu esa operatsiya davomiyligini sezilarli darajada qisqartirganligi, kombinatsiyalangan «onlay + sublay» usulida protez implantatsiyasi bilan churra alloplastikasining tavsiya etilgan tortilishsiz usuli katta churralarni davolash natijalarini yaxshilagan (W3, W4), stress gormonlari dinamikasi tortilish gernioplastikasini bajarish jarayonida jarrohlik tajovuzkorligining kuchayishi va uzoq muddatli pnevmoperitoneum kuzatilishini ko'rsatganligi, ventral churralar va kombinatsiyalangan qorin patologiyasini jarrohlik davolashning taktik va texnik jihatlarini optimallashtirish operatsiyadan keyingi asoratlar chastotasi va statsionar davolanish muddatini sezilarli darajada kamaytirganligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qorin bo'shlig'i churrasi va qo'shma qorin bo'shlig'i patologiyasi bo'lgan bemorlarni tashxislash va jarrohlik davolashni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot natijalariga asosan:

qorin churrasi jarrohligi va qorin old devorining qo'shma patologiyasini tashxislash imkonini bergan «Qorin churrasi jarrohligi va qorin old devorining qo'shma patologiyasi» uslubiy tavsiyanomasi ishlab chiqilgan (Sog'liqni saqlash vazirligining 2022 yil 7 oktyabrdagi 8n-r/1080-son xulosasi);

ventral churralarda qo'shilib kelgan qorin patologiyasini jarrohlik yo'li bilan davolash imkonini bergan «Ventral churralarda qo'shilib kelgan qorin patologiyasini jarrohlik yo'li bilan tuzatish» uslubiy tavsiyanomasi ishlab chiqilgan (Sog'liqni saqlash vazirligining 2022 yil 7 oktyabrdagi 8n-r/1086-sonli xulosasi). Mazkur uslubiy tavsiyanoma qorin bo'shlig'i churralarining qorin bo'shlig'i a'zolari bilan birga keladigan jarrohlik patologiyalari bilan og'rikan bemorlarni jarrohlik davolash taktikasini tanlashni optimallashtirishga imkon bergan;

qorin bo'shlig'i churrasi va qorin bo'shlig'i a'zolarining bir vaqtda qo'shilib kelgan jarrohlik kasalliklari bilan og'rikan bemorlarni tashxislash va jarrohlik davolash sifatini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar sog'liqni saqlash amaliyotiga, xususan, Samarqand viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazi, SamDTU ko'p tarmoqli klinikasi, Shaxrisabz shaxar tibbiyot birlashmasi, Surxandaryo viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazi, Jizzax viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazi jarrohlik bo'limlariga joriy etilgan (Sog'liqni saqlash vazirligining 2022 yil 24 oktyabrdagi 8n-d/570-sonli xulosasi). Qorin bo'shlig'i churrasi va qorin bo'shlig'i organlarining bir vaqtning o'zida jarrohlik kasalliklari bilan og'rikan bemorlarni jarrohlik davolashning taktik va texnik jihatlarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqot natijalarini amalga oshirish qorin bo'shlig'i va qorin bo'shlig'i a'zolarining kombinatsiyalangan patologiyasida bir vaqtning

o'zida operatsiyalarni bajarish imkoniyatini asoslagan, churra alloplastikasidan keyin takroriy operatsiyalarning oldi olingan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 2 ta xalqaro va 6 ta respublika anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 25 ta ilmiy maqola, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta jurnal maqola chop etilgan, shundan 9 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, yettita bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 153 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbliligi, tadqiqot maqsadi va vazifalariga asoslangan bo'lib, tadqiqot ob'ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirilgan, tadqiqotning amaliyotga joriy qilingan natijalari ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tarkibi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning «**Ventral churra bilan og'rigan bemorlarda qorin bo'shlig'i a'zolari va qorin devorlarida simultan operatsiyalar**» deb nomlangan birinchi bobida qorin bo'shlig'i a'zolarining hamroh jarrohlik patologiyasi bilan kasallangan bemorlar muammosining mohiyati, uning etiopatogenezi, tashxislash va davolashning zamonaviy usullari, davolashning dolzarb masalalari ochib berilgan adabiy sharh berilgan. Ushbu bobda muammoning holati, qorin bo'shlig'i va qorin devori a'zolarida simultan operatsiyalarni tasniflash masalalari keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Klinik materiallar tavsifi va qo'llanilgan tekshirish usullari**» deb nomlangan ikkinchi bobida Samarqand davlat tibbiyot universiteti ko'p tarmoqli klinikasi jarrohlik bo'limida 2012 yildan 2021 yilgacha bo'lgan davrda statsionar davolangan 331 nafar ventral churra va qorin bo'shlig'i hamroh patologiyasi bilan kasallangan bemorlarni tekshirishga asoslangan tadqiqot umumiy tavsifi keltirilgan.



Bemorlar ikki guruhga bo'lingan: taqqoslash guruhiga 2012-2016 yillarda operatsiya qilingan qorin old devorining churrasi va qorin bo'shlig'i a'zolarining simultan patologiyasi bo'lgan 104 nafar (31,4%) bemor kirdi. Asosiy guruhni 2017-2021-yillarda operatsiya qilingan 227 (68,6%) bemorlar tashkil etgan, ularda ventral churra va qorin bo'shlig'i a'zolarining hamroh bo'lgan jarrohlik patologiyasini jarrohlik yo'li bilan tuzatishda ustuvor yo'nalish sifatida endovideojarrohlik texnologiyalari va «taranglashmagan» plastika usullari qo'llanilgan.

Tekshiruvdan o'tgan bemorlar orasida 225 (67,9%) bemorda qorin bo'shlig'i a'zolariga turli xil jarrohlik aralashuvlar tarixi bo'lgan, 106 (42,1%) bemor yangi tashxis qo'yilgan churra bilan kelgan. Chervel J.P. va Rath A.M. (1999) tasnifiga binoan 212 (64,1%) bemorlarda katta (W₃) va gigant (W₄) churralar bor edi. Bemorlarning 265 (80,1%) nafarida qorin bo'shlig'ining o'rta chizig'ida churra bor. 331 bemorning 132(39,9%) nafarida churrasi takrorlangan (R_n) (1-rasm).

Barcha bemorlarda asosiy jarrohlik kasalligi ventral churra bo'lgan. Eslatib o'tamiz, 2017-2021-yillarda ventral churra bilan og'rikan 429 nafar bemor operatsiya qilingan bo'lib, shundan 227 nafarida gernioplastika qorin bo'shlig'i a'zolarining hamroh patologiyasini jarrohlik tuzatish bilan to'ldirilgan. Bizning ma'lumotlarimizga ko'ra, ventral churralarda simultan patologiyaning uchrashi 52,8% ni tashkil etdi. Simultan patologiyaga operatsiyadan oldingi bosqichda 74,6%, intraoperativ - 25,4% da tashxis qo'yilgan.



Klassifikatsiya, **Chervel J.P. va Rath A.M. (1999) SWR**
M – Joylashuvi
W – Diametri
R – Qaytalanishlar soni




1-rasm. Churraning joylashuvi, aponevroz nuqsonining o'lchami va residiviga ko'ra bemorlar taqsimoti

Taqqoslash guruhida jami 178 ta, asosiy guruhda 334 ta jarrohlik patologiyalari mavjud va ularning ba'zilarida ikkita yoki undan ko'p bo'lgan. Ulardan qorin bo'shlig'ining bitishma kasalligi 67 (37,6%) va 106 (46,7%), semizlik III i IV darajasi osilgan qorin bilan 32 (17,9%) va 67 (29,5%), o't tosh kasalligi - 29 (16,3%) va 69 (30,1%), jigar va oshqozon osti bezi kistalari 8 (4,5%) va 13 (5,7%), qorin oldingi devori jarrohlik patologiyasi (ligaturali oqma va psevdokista) 11 (6,2%) va 19 (8,4%), ayollarda kichik chanoq a'zolari patologiyasi 33 (18,6%) va 70 (30,8%) mos ravishda taqqoslash va asosiy guruhlarida aniqlangan (2-rasm).

Shuni ta'kidlash kerakki, churra hajmi kattalashgan bemorlarda qorin old devori va qorin bo'shlig'i a'zolarining hamroh jarrohlik patologiyasining uchrashi mutanosib ravishda oshgan - W_3 -59,6%, W_4 -66,3%.

Tekshirilgan bemorlarning 208(62,8%) nafarida hayotiy muhim a'zolarining turli xil somatik kasalliklari kuzatilgan. Ulardan 139 (41,9%) bemorda ikki yoki undan ortiq somatik kasalliklar mavjud bo'lgan. ASA tasnifini hisobga olgan holda 178 (53,7%) bemor II sinfga, 30 (9%) bemor esa III sinfga to'g'ri kelgan.



2-rasm. Tadqiqot guruhlarida bemorlarnig hamroh xirurgik patologiyasining tuzilishi

Churra darvozasining o'lchamini, churra xaltasi tarkibining hajmini aniqlash, qo'shimcha aponevroz nuqsonlarini aniqlash, qorin bo'shlig'i a'zolarining hamroh patologiyasini aniqlash, qorin old devori teri osti yog'ining qalinligi va bir xilligini aniqlash uchun, shuningdek, gernioallo- va abdominoplastika usulini aniqlash uchun kompyuter tomografiyasi va kompyuter tomografiyasi gernoabdominometriya (KTGA) o'tkazilgan. Ushbu usul asosiy guruhdagi 58 (25,9%) bemorda amalga oshirilgan (3-rasm).

Usul, shuningdek, qorin bo'shlig'i organlarining simultan patologiyasi mavjudligini tekshirishga imkon bergan. KTGA qorin old devorining topografiyasidagi nuqsonlarni aniqlash va optimal plastika usulini tanlash imkonini bergan. Qorin bo'shlig'i hajmining 5% dan kam bo'lgan churraning nisbiy hajmi bilan churralar kichik deb hisoblanadi. Agar churra bo'rtmasining nisbiy hajmi qorin bo'shlig'i hajmining 5,1% dan 14,0% gacha bo'lsa, ular o'rta churralar deb hisoblanadilar va gernioplastikaning taranglashgan usullariga ustunlik berilgan - nuqson tikish bilan endoprotezni «onlay» implantatsiya qilish.



3-rasm. Bemor S., 62 yoshda. Operatsiyadan keyingi ventral churra (M2W3R0) va surunkali bitishmali ichak tutilishi bilan. Qorin oldingi devorining ko‘rinishi va kompyuter gernoabdominometriyasi.

14,1% -18% oraliq‘ida churra chiqishining nisbiy hajmi bilan churra katta deb hisoblangan, tanlov usuli esa taranglashmagan protez ta‘mirlash bo‘lib, qorin old devorini «tuzatish» yoki «rekonstruksiya qilish» bo‘lgan. Operatsiya usulining yakuniy tanlovi intraoperativ bo‘lib, «ma‘lumot uchun» testining natijalari hal qiluvchi rol o‘ynagan. Qorin bo‘shlig‘i hajmidan churra bo‘rtmasining nisbiy hajmining 18% yoki undan ko‘prog‘ida churra gigant deb hisoblangan, jarrohlik usulini tanlash faqat taranglashmagan plastika hisobiga bo‘lgan – nuqsonni tikmasdan endoprotezni «onlay» usulida implantatsiyasi, nuqsonni tikmasdan endoprotezni kombinirlangan «onlay + sublay» usulida implantatsiyasi va Ramirez bo‘yicha qorin to‘g‘ri mushagi qinini mobilizatsiyasi bilan nuqsonni tikmasdan endoprotezni kombinirlangan «onlay + sublay» usulida implantatsiyasi.

Dissertatsiyaning «**Ventral churra bilan og‘rigan bemorlarda qorin devori va qorin bo‘shlig‘i a‘zolarida simultan operatsiyalarni taktik va texnik jihatlari**» deb nomlangan uchinchi bobida shaxsiy izlanishlar natijalari bayon etilgan. Barcha bemorlarda asosiy patologiya ventral churra bo‘lganligi sababli, simultan patologiya qorin bo‘shlig‘ining jarrohlik kasalligi bo‘lgan. Jarrohlik usulini tanlashda, birinchi navbatda, churra darvozasining joylashishi, so‘ngra qorin bo‘shlig‘ida simultan patologiyasi bo‘lgan a‘zoning joylashishi hisobga olingan.

Qorin oldingi devorida churra darvozasining joylashuvi va qorin bo‘shlig‘ida hamroh patologiya joylashuvining sxematik distopiyasi ishlab chiqilgan. Churralar joylashuvi Chevrel J.P. va Rath A.M. (1999) tasnifiga ko‘ra baholangan va hamroh patologiyaning joylashuvi qorin bo‘shlig‘ining topografik 9 sohaga bo‘linishi bilan belgilangan.

Taqqoslash guruhida simultan operatsiyalarni bajarishda faqat an‘anaviy keng kesmadan foydalanilgan, ya‘ni gerialaparotomiya epigastral yoki gipogastral sohagacha kengaytirildi, bu jarrohga simultan operatsiya bosqichini bajarishga imkon bergan. Shu bilan birga, churra nuqsonini bartaraf etish juda ko‘p vaqtni olgan, operatsiya davomiyligi sezilarli darajada oshgan. Bundan tashqari, u bir qator jiddiy kamchiliklarga ega bo‘lgan - operatsiyaning yuqori travmatizatsiyasi,

operatsiyadan keyingi yara va umumiy asoratlar xavfi ortishi, qoniqarsiz kosmetik natijalar, erta reabilitatsiyaning uzoq muddati va boshqalar. Jarrohlik kasalliklari bir-biridan uzoq masofada joylashganida, har bir patologiya alohida kesim orqali operatsiya qilingan. Umuman olganda, taqqoslash guruhidagi 83 (79,8%) bemorlarda simultan operatsiya bitta gerniolaparotomiya orqali amalga oshirilgan, 21 (20,2%) bemorda simultan operatsiya alohida kirish orqali amalga oshirilgan.

Asosiy tadqiqot guruhida ventral churrasi va qorin bo'shlig'ining simultan patologiyasi bo'lgan 46 (20,3%) bemorlarda operatsiyaning ikkala bosqichida EVJ yordamida laparoskopik usullardan o'tkazilgan. Ushbu bemorlarga 1-bosqichda 19 ta holatda LXE, 11 bemorga bachadon miomasi tufayli bachadon qinusti amputatsiyasi yoki ekstirpatsiyasi, 7 bemorga tuxumdondan kistektomiya, 2 bemorga jigar kistalarining fenestratsiyasi, 27 bemorga qorin bo'shlig'i bitishma kasalligi va surunkali ichak tutilishi tufayli adgeziolizis bajarilgan. Operatsiyaning 2-bosqichi laparoskopik gernioplastika bilan yakunlangan.

Asosiy guruhning 39 (17,6%) bemorida 1-bosqichda simultan patologiya laparoskopik tarzda tuzatilgan, operatsiyaning asosiy bosqichi - gernoalloplastika gerniolaparotomiya kirishi orqali amalga oshirilgan. Shu bilan birga, 23 nafar bemorga LXE, bachadon miomasi tufayli bachadonning qin usti amputatsiyasi – 1 nafar, tuxumdon kistektomiyasi – 4 nafar, 1 kuzatuvda jigardan kista olib tashlandi, 14 nafar bemorda adgeziolizis qilingan.

Shunday qilib, asosiy guruhdagi 227 nafar bemorning 46 nafarida (20,3%) asosiy va simultan patologiyani laparoskopik usulda, 39 tasida (17,6%) simultan patologiyani endovideojarrohlik bilan tuzatish amalga oshirilgan.

Shu bilan birga, asosiy guruhdagi 142 (62,6%) nafar bemorda operatsiyaning ikkala bosqichi ham gerniolaparotomik yondashuv orqali amalga oshirildi. Buning sababi qorin bo'shlig'i a'zolari patologiyasining churra nuqsoniga yaqinligi bo'lgan. Asosiy guruhning semizlik II-III darajasi hamroh patologiyasiga ega bo'lgan 67 (29,5%) nafar bemorlarida qorin old devori plastikasi tugagandan so'ng, dermatolipidektomiya amalga oshirilgan.

Asosiy guruhda, simultan patologiya churra nuqsonidan uzoq masofada joylashgan bo'lsa, 85 (37,5%) nafar bemorda, ya'ni asosiy guruhdagi bemorlarning 1/3 qismidan ko'pida laparoskopik texnikadan foydalangan holda operatsiyaning simultan bosqichlari o'tkazilgan (1-jadval).

Dissertatsiyaning «**Endovideojarrohlik gernoalloplastikasi texnik jihatlari**» deb nomlangan to'rtinchi bobi endovideojarrohlik gernoalloplastikasiga bag'ishlangan. Kichik va o'rta o'lchamdagi ventral churralari bo'lgan asosiy guruhning 46 (20,3%) nafar bemorlarida, aponevroz nuqsoni o'lchamlari 5 sm gacha va 5 sm dan 10 sm gacha bo'lgan bemorlarda ventral churralar «ipom» (Laparoscopic Intra Peritoneal Onlay Mesh) usuli bo'yicha polipropilen implant yordamida laparoskopik protezli gernioplastika qo'llanilgan. Troakarlarni kiritish joylari standartlashtirilgan va qorin bo'shlig'i a'zolariga operatsiyaning simultan bosqichi o'tkazilgandan so'ng qulayroq va xavfsizroq bo'lgan joylarda tanlangan.

46 nafar bemorning 34 nafari (73,3%) standart polipropilen to‘rli implantlar yordamida laparoskopik protezlovchi gernioplastika o‘tkazilgan, 12 tasida (26,7%) «Physiomesht» yoki «Prosid» (Ethicon) kompozit to‘r implantlari qo‘llanilgan.

Qorin bo‘shlig‘iga standart implantlarni qo‘llashda qorin pardasi ochilib, churra qopchasi ajratilgan va perimetri bo‘ylab churra teshigidan 5-6 sm chuqurlikdagi preperitoneal bo‘shliqda «cho‘ntak» yaratilgan. Keyin naysimon o‘ralgan to‘rli implant troakar orqali qorin bo‘shlig‘iga kiritilgan, ochilgan va yaratilgan qorin parda oldi bo‘shlig‘i «cho‘ntak»iga joylashtirilgan. Uni qorin old devoriga yopishtirish implantatning chetlari bo‘ylab bog‘langan ligaturalar yordamida amalga oshirilgan.

Implantni qorin old devoriga tikish modifikatsiyalangan Endo Close ignasi yordamida amalga oshirilgan (4-rasm). O‘zgartirilgan Endo Close ignasidan foydalanish jarroh uchun qulay va bemor uchun intrakorporal peritoneal tikuvdan ko‘ra xavfsizroq bo‘lgan.



1

2

3

4-rasm. O‘ralgan tikilgan implantni ochish (1), o‘zgartirilgan Endo Close ignasi bilan tikuvni olib tashlash (2), qorin devorining yonidan tikuv iplarini olib tashlash (3)

12 (26,7%) nafar bemorlarda «Physiomesht» yoki «Prosid» (Ethicon) kompozit to‘r implantlarini qo‘llash protezni qorin old devoriga mahkamlashdan oldin qorin bo‘shlig‘i «cho‘ntak» ni yaratish zaruratini yo‘qotgan.

Qayd etish joizki, 48 nafar bemorning barchasida laparoskopik churra alloplastikasi «taranglashmagan» usulda amalga oshirilgan va natijada tadqiqotning asosiy guruhining 149 (65,6%) nafar bemorida, ya‘ni klinik kuzatuvlarning 2/3 qismida taranglashmagan churra alloplastikasi amalga oshirilgan.


Sxematik distopiya ishlab chiqilgan, ya‘ni qorin devoridagi gernal nuqsonning lokalizatsiyasi va qorin bo‘shlig‘ida bir vaqtning o‘zida patologiyani joylashishi. Gernal shishning joylashuvi Chervel J.P. tasnifi bo‘yicha baholangan va Ras A.M. (1999) va bir vaqtning o‘zida patologiyani joylashishi qorin bo‘shlig‘ining 9 sohaga topografik bo‘linishi bilan bajarilgan.

Tashxis qo‘yishda churraning joylashishini va bir vaqtning o‘zida qo‘shilib kelgan patologiyani ko‘rsatish kerak bo‘lgan, ya‘ni Chervel J.P va Ras A.M. (1999) tasniflash bo‘yicha bir vaqtning o‘zida patologiyani joylashishini qo‘shgan. Masalan: Asosiy tashxis - gipogastral sohaning operatsiyadan keyingi to‘g‘rilanmaydigan ventral churrasi. Simultant tashxis - O‘TK. Surunkali kalkulyoz xolesistit. Qisqartma M3 W2 R0 SII (1-jadval).

Asosiy guruh bemorlarda churra va hamroh patologiya distopiyasi bo'yicha taqsimoti

Churra xarakteri			Qorin bo'shlig'i sohalarida simultan patologiya joylashuvi								Jami		
			S _{II}	S _{II}	S _{II}	S _V	S _V	S _V	S _{VIII}	S _{VIII}		S _{VIII}	
M	M ₁	kindik usti	6	8	7	2	2	23	5		22	75	
	M ₂	kindik sohasi	11	12	25	3	8	2	8	5	29	103	
	M ₃	kindik osti	3	4	3	2		8	2		6	28	
	M ₄	qov usti	1						3			4	
L	L ₁	qovurg'a osti			2			3			4	9	
	L ₂	ko'ndalang						1				1	
	L ₃	yonbosh			3			2			1	6	
	L ₄	bel			1							1	
→			21	24	41	7	10	39	18	5	62	227	
S	W	W ₁	5sm dan kichik	5			4	2		13			24
		W ₂	6 dan 10sm gacha	16	7	9	3	3	6	5	3	5	57
		W ₃	11 dan 15sm gacha		12	19		4	21		2	21	79
		W ₄	15sm dan katta		5	13		1	12			36	67
→			21	24	41	7	10	39	18	5	62	227	
R	R ₀	Birlamchi aniqlangan	13	2		2	2		3	4		26	
		Operatsiyadan keyingi	7	20	13	4	6	10	14	1	31	106	
	R ₁	Birinchi residiv	1	2	25	1	2	29	1		25	86	
	R ₂	Ikkinchi residiv			2						5	7	
	R ₃	Uchinchi residiv			1						1	2	
→			21	24	41	7	10	39	18	5	62	227	

*Izoh:

-  - EVJ barcha bosqichlari (n=46);
-  - EVJ + gernoalloplastikaning simultan bosqichi (n=39);
-  - gerniolaparotom kirish orqali barcha bosqichlar (n=142)

Dissertatsiyaning «Ventral churrasi bo'lgan bemorlarda gernioplastikaning taktik va texnik jihatlarini optimallashtirish» deb nomlangan beshinchi bobi gernioplastikaning taktik va texnik jihatlarini optimallashtirish yo'llariga bag'ishlangan. Taqqoslash guruhidagi (n=104) bemorlardan 62 (59,6%) nafarida taranglashgan plastika usullari va 42 (40,4%) bemorda taranglashmagan usullar yordamida churra alloplastikasi o'tkazilgan, ya'ni taranglashgan plastika usullari ko'proq bajarilgan.

Asosiy guruhda (n =181) gernioplastikani tanlash farqlandi va biz ishlab chiqqan mezonlarga asoslandi, unga ko'ra bemorlar 5 ta kichik guruhga bo'lingan (2-jadval).

KT ma'lumotlariga ko'ra qorin bo'shlig'i hajmining 5% gacha bo'lgan churra bo'rtmasi bo'lganda laparoskopik gernoalloplastika bajarilgan (1-kichik guruh). Aponevroz defekti 5 smgacha va 5 sm dan 10 smgacha bo'lgan, ya'ni kichik va o'rta o'lchamdagi (W_1 , W_2) operatsiyadan keyingi churrasi bor 49 nafar bemorda IPOM usulida laparoskopik gernoalloplastika bajarilgan.

2-jadval

